



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 230 sahifa,
16-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaiyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinovna	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Вахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Dildilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanalievna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarning psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarning kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Duduqlanish nutq kamchiligini korreksiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakulov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning reflektiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	

TA'LIM TASHKILOTLARIDA SIFATNI BOSHQARISH JARAYONLARINI TIZIMLI REJALASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Abdurashit Karimovich Avliyakov

Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti

"Ta'limda boshqaruv" kafedrası professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim sifati tushunchasining shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Sifat kategoriyasining falsafiy ildizlari, o'rta asrlar hunarmandchilik an'analari, industrial jamiyat davri hamda XX-XXI asrlarda sifat menejmenti konsepsiyalarining takomillashuvi asosida uning ta'lim tizimiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirish hamda kasbiy ta'lim tizimida ta'lim sifati "kimni o'qitish kerak?", "kim o'qitishi kerak?", "nima uchun, nimani va qanday o'qitish kerak?" kabi fundamental savollar asosida tahlil etilgan. Maqolada mehnat bozori talablari, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari kasbiy ta'lim tizimida sifatni ta'minlashning nazariy va amaliy mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, sifat konsepsiyasi, kasbiy ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, mehnat bozori, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, ustoz-shogird an'anasi.

Abstract: This article analyzes the stages of formation and historical development of the concept of education quality. The influence of the philosophical roots of the quality category, medieval craft traditions, the industrial society period, and the improvement of quality management concepts in the 20th-21st centuries on the education system is revealed. In addition, the systematic planning of quality management processes in educational institutions is considered, and the quality of education in the vocational education system is analyzed based on fundamental questions such as "Who should be taught?", "Who should teach?", and "Why, what, and how should teaching be conducted?". The article scientifically substantiates the impact of labor market requirements, the competency-based approach, the integration of education and production, and innovative pedagogical technologies on the effectiveness of education. The research results contribute to improving the theoretical and practical mechanisms for ensuring quality in the vocational education system.

Key words: education quality, quality concept, vocational education, competency-based approach, labor market, innovative pedagogical technologies, integration of education and production, mentor-apprentice tradition.

Аннотация: В данной статье проанализированы этапы формирования и исторического развития понятия качества образования. Раскрыто влияние философских истоков категории качества, ремесленных традиций средневековья, периода индустриального общества, а также совершенствования концепций менеджмента качества в XX-XXI веках на развитие системы образования. Кроме того, рассмотрены вопросы системного планирования процессов управления качеством в образовательных организациях, а также проанализировано качество образования в системе профессионального образования на основе фундаментальных вопросов: "кого обучать?", "кто должен обучать?", "зачем, чему и как обучать?". В статье научно обосновано влияние требований рынка труда, компетентностного подхода, интеграции образования и производства, а также инновационных педагогических технологий на эффективность образования. Результаты исследования направлены на совершенствование теоретических и практических механизмов обеспечения качества в системе профессионального образования.

Ключевые слова: качество образования, концепция качества, профессиональное образование, компетентностный подход, рынок труда, инновационные педагогические технологии, интеграция образования и производства, традиция наставничества.

KIRISH

Hozirgi globallashuv, raqamlashuv va iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan sharoitda ta'lim tashkilotlari faoliyatiga qo'yilayotgan talablar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Zamonaviy jamiyat sharoitida ta'lim sifati faqat o'quv natijalari bilan emas, balki ta'lim jarayonining samaradorligi, boshqaruv tizimining takomillashganligi, pedagog kadrlar salohiyati, moddiy-texnika bazasi va innovatsion muhitning shakllanganligi



bilan ham belgilanadi. Shu sababli ta'lim tashkiloti faoliyati va ta'lim sifatini boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Tizimli rejalashtirish ta'lim tashkilotining barcha faoliyat yo'nalishlarini yagona strategik maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. U ta'lim jarayoni, boshqaruv qarorlari, resurslar va natijalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlab, ta'lim tashkilotini yaxlit va uzluksiz faoliyat yurituvchi tizim sifatida qarash imkonini beradi.

Ta'lim sifati ijtimoiy kategoriya sifatida ta'lim jarayonining holati va natijalarini, shuningdek, shaxsning kasbiy, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarining shakllanish darajasini ifodalaydi. Ta'lim sifati jamiyat ehtiyojlari, mehnat bozori talablari va davlat ta'lim siyosati bilan uyg'unlikda baholanadi. Zamonaviy yondashuvga ko'ra, ta'lim sifati kompleks tushuncha bo'lib, u quyidagi strategik savollarga aniq va asoslangan javoblar mavjudligi orqali namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Avvalo, kimni o'qitish masalasi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy ta'lim tizimida mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga qiziqish bildirgan yoshlar va katta yoshdagilar qamrab olinishi lozim. Bunda ta'lim jarayoni o'quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, umumiy tayyorgarligi va kasbiy yo'nalishini hisobga olgan holda tashkil etilishi ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Individuallashtirilgan yondashuv sifatli natijaning asosiy sharti hisoblanadi.

Ikkinchidan, kim o'qitishi kerak degan savol ta'lim sifatining kadrlar salohiyati bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Kasbiy ta'lim jarayonini o'z sohasini chuqur bilgan, ishlab chiqarish tajribasiga ega, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan o'qituvchilar va ustalar amalga oshirishi zarur. Pedagog kadrlarning malakasini muntazam oshirish va ularni innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlash sifatini boshqarish tizimining ustuvor yo'nalishidir.

Uchinchidan, nima uchun o'qitish kerak degan savol ta'limning strategik maqsadini belgilaydi. Asosiy maqsad – mehnat bozori talablariga javob beradigan, mustaqil fikrlay oladigan, amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalarga ega raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdir. Shu bilan birga, ta'lim shaxsning ijtimoiy faolligi, mas'uliyati va kasbiy o'sishini ta'minlashi kerak.

To'rtinchidan, nimani o'qitish kerak degan masala ta'lim mazmuni bilan bog'liq. O'quv dasturlari zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, kasbiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar hamda umumkasbiy kompetensiyalarni qamrab olishi lozim. Nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlanishi, ta'lim mazmuni mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq muntazam yangilanib borilishi talab etiladi.

Beshinchidan, qanday o'qitish kerak degan savol ta'lim texnologiyalari va metodlarini belgilaydi. Kasbiy ta'lim kompetensiyaviy yondashuv asosida, amaliyotga yo'naltirilgan, interaktiv va innovatsion metodlar orqali tashkil etilishi zarur. Loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, treninglar va ishlab chiqarish amaliyoti ta'lim samaradorligini oshiradi.

Oldinchidan, nimalardan foydalanib o'qitish kerak degan jihat ta'lim resurslari bilan bog'liq. Zamonaviy o'quv-metodik qo'llanmalar, raqamli platformalar, multimedia vositalari, laboratoriya jihozlari va ishlab chiqarish uskunalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini ta'minlaydi.

Yettinchidan, qayerda o'qitish kerak degan masala ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini nazarda tutadi. Ta'lim jarayoni auditoriyalar bilan cheklanib qolmasdan, ustaxonalarda, laboratoriyalarda va ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilishi kerak. Bu o'quvchilarning real mehnat sharoitiga moslashuvini ta'minlaydi.

Sakkizinchidan, qancha muddatga o'qitish kerak degan savol ta'limning samaradorligi va uzluksizligini belgilaydi. O'qitish muddati kasb murakkabligi va malaka darajasiga bog'liq holda belgilanadi. Shu bilan birga, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari orqali uzluksiz ta'limni ta'minlash zamonaviy sifat boshqaruvining ajralmas qismi hisoblanadi.

Yuqoridagi omillar ta'lim sifati tasodifiy emas, balki tizimli rejalashtirish natijasi ekanini ko'rsatadi. Sifatni boshqarish jarayoni tahlil, strategik maqsad belgilash, rejalashtirish, amalga oshirish va monitoring bosqichlaridan iborat uzluksiz sikl sifatida amalga oshiriladi. Tahlil bosqichida ichki imkoniyatlar va tashqi muhit o'rganiladi. Strategik maqsadlar mehnat bozori va jamiyat ehtiyojlariga muvofiq shakllantiriladi. Rejalashtirish jarayonida resurslar taqsimlanadi va aniq indikatorlar belgilanadi. Amalga oshirish bosqichida innovatsion pedagogik texnologiyalar joriy etiladi. Monitoring orqali erishilgan natijalar baholanib, zarur tuzatishlar kiritiladi.

Ayniqsa, kasbiy ta'lim tizimida sifatni boshqarish mehnat bozori bilan samarali hamkorlik, ish beruvchilar ishtirokida ta'lim dasturlarini shakllantirish va bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilishni talab etadi.

Ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirish ta'lim sifatini barqaror ta'minlashning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Ta'lim sifati mazmuni, maqsadi, sub'ektlari, usullari va resurslari aniq belgilab olingandagina samarali natijaga erishish mumkin. Zamonaviy yondashuvga ko'ra, ta'lim sifati uch asosiy jihatda namoyon bo'ladi: ta'lim natijalari; ta'lim jarayonining samaradorligi; boshqaruv va resurslardan foydalanish sifati. Demak, ta'lim sifati faqat yakuniy natija emas, balki rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat va takomillashtirish bosqichlarini o'z ichiga olgan uzluksiz boshqaruv jarayonidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sifat tushunchasining tarixi uning bosqichma-bosqich takomillashib borganini ko'rsatadi. XX asrning 60-yillarida sifat asosan mahsulot sifati bilan bog'langan bo'lsa, 70-yillarda ishlab chiqarish texnologiyalari sifatiga e'tibor kuchaydi. 80-yillarda sifatni boshqarish tizimlari shakllanib, rejalashtirish va nazorat mexanizmlari joriy etildi. 90-yillardan boshlab esa sifat inson kapitali va intellektual resurslar bilan bog'liq holda qarala boshlandi. Bu jarayon ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ta'lim sifati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik omil sifatida e'tirof etildi. XXI asrda esa ta'lim sifati barqaror rivojlanish, innovatsion iqtisodiyot va raqamli transformatsiya bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinmoqda. Sifat konsepsiyasining XX asrgacha bo'lgan tarixi va uning ta'lim tizimiga ta'siri mavjud. Jumladan, sifat tushunchasi insoniyat sivilizatsiyasi bilan birga shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning mazmuni turli davrlarda jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish usullari va ijtimoiy munosabatlar rivojiga qarab o'zgarib, takomillashib borgan. Shu bois sifat konsepsiyasining evolyutsiyasini faqat XX-XXI asrlar doirasida emas, balki ancha ilgari davrlardan boshlab tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Qadimgi sivilizatsiyalar davrida sifat tushunchasi asosan amaliy mahorat va shaxsiy mas'uliyat bilan bog'liq bo'lgan.

Qadimgi Misr, Bobil, Yunon va Rim davlatlarida qurilish inshootlari, hunarmandchilik buyumlari va harbiy jihozlar muayyan talablar asosida tayyorlangan. Bu davrda sifatni ta'minlash ustalarining shaxsiy malakasi, tajribasi va ustoz-shogird an'analari orqali amalga oshirilgan. Sifat hali mustaqil boshqaruv kategoriyasi sifatida emas, balki ijrochining mahorati va vijdoni bilan belgilangan. O'rta asrlarga kelib, sifatni ta'minlashda institutsional yondashuv elementlari paydo bo'la boshlagan. Yevropada hunarmandlar gildiyalari (sexlar) tashkil etilib, ular mahsulot sifati ustidan nazorat o'rnatgan. Har bir usta belgilangan me'yorlarga rioya qilishi shart bo'lgan, talabga javob bermagan mahsulot bozorga chiqarilmagan. Shogirdlik, kalfalik va ustalik darajalari orqali kasbiy tayyorgarlik bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Sharq mamlakatlarida ham ustoz-shogird tizimi, madrasa va hunarmandchilik maktablari orqali sifat an'anaviy me'yorlar asosida ta'minlangan. Bu bosqichda sifat shaxsiy xususiyatdan tashqari, jamoaviy nazorat ob'ektiga aylana boshladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

XVII-XVIII asrlarda, ya'ni yangi davrda ishlab chiqarish hajmining ortishi va davlat buyurtmalarining ko'payishi natijasida muayyan standartlashtirish elementlari shakllangan. Ayniqsa, harbiy va texnik mahsulotlar ishlab chiqarishda o'lcham va shakllar bir xil bo'lishi talab etilgan. Bu esa sifat tushunchasining me'yorlashtirish bilan bog'liq yangi bosqichga o'tishini anglatar edi. Sifat asta-sekin individual mahorat doirasidan chiqib, belgilangan standartlarga muvofiqlik mezoniga aylana boshlagan.

XIX asrda sanoat inqilobi natijasida ommaviy ishlab chiqarish tizimi shakllangan. Ishlab chiqarish jarayonining bo'linishi va ixtisoslashuvi sifatni ta'minlashda yangi muammolarni keltirib chiqardi. Endi har bir mahsulotni bir usta emas, balki bir nechta ishchi tayyorlay boshlagan. Shu sababli yakuniy nazorat, texnik inspeksiya va qabul qilish tizimlari joriy etilgan. Bu bosqichda sifat asosan mahsulotni tekshirish va nuqsonlarni aniqlash orqali ta'minlangan. Ya'ni, sifatni boshqarish emas, balki sifatni nazorat qilish ustuvor bo'lgan.

XX asrga kelib esa sifatni tizimli boshqarish konsepsiyasi shakllana boshladi. Sifatni rejalashtirish, jarayonni nazorat qilish va doimiy takomillashtirish g'oyalari ilgari surildi. Sifat faqat natija emas, balki butun tashkilot faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichi sifatida qarala boshlandi. Keyinchalik bu yondashuv ta'lim tizimiga ham tatbiq etildi. Sifat konsepsiyasining ushbu tarixiy rivojlanishi ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi va o'rta asrlarda ta'lim sifati asosan ustozning shaxsiy salohiyati, ilm darajasi va axloqiy fazilatlar bilan baholangan. Universitetlar va madrasalarda ta'lim sifati an'anaviy ilmiy maktablar nufuzi bilan belgilangan. Tizimli sifat boshqaruvi mavjud bo'lmagan, balki akademik an'ana va ustozning obro'si hal qiluvchi omil bo'lgan.

Sanoat inqilobi davrida esa ta'lim tizimi ham ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos ravishda o'zgarib, ixtisoslashuv kuchaydi. Kasbiy ta'lim muassasalari tashkil etildi va ta'lim mazmuni amaliyotga yaqinlashtirildi. XX asrdan boshlab esa ta'lim sifati strategik ahamiyat kasb etib, uni boshqarish, rejalashtirish va monitoring qilish tizimlari shakllandi.



Shunday qilib, sifat konsepsiyasining tarixi uning shaxsiy mahoratdan standartlashtirishga, nazoratdan tizimli boshqaruvga qadar bosqichma-bosqich takomillashib borganini ko'rsatadi. Ushbu evolyutsiya ta'lim tizimida ham o'z aksini topib, bugungi kunda ta'lim sifati barqaror rivojlanish va inson kapitali taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylandi. Ta'lim tashkilotlarida tizimli rejalashtirishning mohiyati. Ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

*Birinchi*dan, **tahlil bosqichi**. Bu bosqichda ta'lim sifati holati, o'quvchilar bilim darajasi, pedagog kadrlar salohiyati va mavjud resurslar o'rganiladi. Shuningdek, tashqi muhit – mehnat bozori, davlat siyosati va jamiyat ehtiyojlari tahlil qilinadi.

*Ikkinchi*dan, **strategik maqsad va vazifalarni belgilash**. Maqsadlar aniq, o'lchovli va amalga oshirilishi mumkin bo'lishi lozim. Masalan, ta'lim natijalarini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, pedagoglar malakasini oshirish kabi vazifalar belgilanadi.

*Uchinchi*dan, **rejalashtirish va resurslarni taqsimlash**. Qisqa, o'rta va uzoq muddatli rejalar ishlab chiqilib, har bir tadbirning mazmuni, ijrochilari va muddati aniq belgilanadi.

*To'rtinchi*dan, **amalga oshirish bosqichi**. Rejalashtirilgan chora-tadbirlar ta'lim jarayoniga tatbiq etiladi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli platformalardan foydalaniladi.

*Beshinchi*dan, **monitoring va baholash**. Natijalar tahlil qilinib, kamchiliklar aniqlanadi va boshqaruv qarorlariga tegishli tuzatishlar kiritiladi. Bu jarayon uzluksiz takomillashtirish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Kasbiy ta'lim sifati xususiyatlari. Kasbiy ta'lim sifati umumiy ta'lim sifati tushunchasining tarkibiy qismi bo'lib, u mehnat bozori talablari bilan bevosita bog'liq. Kasbiy ta'lim sifati bitiruvchilarning amaliy ko'nikmalari, kasbiy kompetensiyalari, innovatsion fikrlash qobiliyati va mehnat faoliyatiga tayyorligi bilan belgilanadi.

Hozirgi sharoitda kasbiy ta'lim sifati raqamli kompetensiyalar, texnologik savodxonlik, ekologik madaniyat va doimiy o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati bilan ham baholanmoqda. Shu bois, kasbiy ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish tizimli rejalashtirish va mehnat bozori bilan samarali hamkorlik asosida amalga oshirilishi zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirish ta'lim sifatini barqaror ta'minlashning asosiy mexanizmi hisoblanadi. U ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini yaxlit tizim sifatida boshqarishni ta'minlab, strategik rivojlanishga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda ta'lim sifati mamlakatning raqobatbardoshligi, inson kapitali rivoji va barqaror taraqqiyotining muhim omilidir. Shuning uchun ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarishning ilmiy asoslangan, tizimli va innovatsion modellarini joriy etish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Афандиев, М.А. Таълимда сифат менежменти: назарий асослар ва амалиёт. Тошкент: "Ўзбекистон", 2018.
2. Жураев, И. Касбий таълим тизимида сифатни баҳолаш ва бошқариш. Тошкент: "Фан ва техника", 2020.
3. Петров, В.В. История качества и стандартизации в производстве и образовании. Москва: "Наука", 2016.
4. Деминг, У. Сифатни назорат қилиш ва бошқаришнинг назарий асослари. Нью-Йорк: McGraw-Hill, 1986.
5. Токарев, С.П. Касбий таълим ва меҳнат бозори эҳтиёжлари. Санкт-Петербург: "Питер", 2019.
6. Anderson, L.W., Krathwohl, D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. New York: Longman, 2001.
7. Хамидов, Ш. Касбий таълимда компетенцияга асосланган ёндашув. Тошкент: "Фан", 2021.
8. Сидоров, А.А. История педагогики: от античности до современности. Москва: "Просвещение", 2015.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.